O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 12 - yanvar 9-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston shahar “Sohil” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan bolalar o‘yingohi “Warkout” maydonchasi qurish uchun davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 408-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27- avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori asosida hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasining 2022-yil 11-noyabrdagi 04/1707-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasiga bolalar o‘yingohi “Warkout” maydonchasi qurish uchun Guliston shahar “Sohil” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining shahar hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan 1724401/B-17748 unikal raqamli 16 m x 18 m o‘lchamdagi 0,0168

gektar yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligining qurilish bo‘yicha “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi (N.Xudoynazarov)ga:

bolalar o‘yingohi “Warkout” maydonchasi qurilishi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Mahmudaliev**